

BERDAX NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.07.2024.A.20.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BERDAX NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

DJOLDASOV AKBAR BATIROVICH

QUYI AMUDARYO MINTAQASI KARVON YO'LLARIDAGI
INSHOOTLAR TIPOLOGIYASI

18.00.01 – Arxitektura nazariyasi va tarixi.
Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va tiklash

Arxitektura bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

**Arxitektura bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundariyasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии
(PhD) по архитектуре**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy
(PhD) on architecture**

Djoldasov Akbar Batirovich

Quy Amudaryo mintaqasi karvon yo'llaridagi inshootlar

Tipologiyasi..... 3

Джолдасов Акбар Батырович

Типология сооружений на караванных путях

Нижнеамударьинского региона..... 21

Djoldasov Akbar Batirovich

Typology of structures along the caravan routes of the Lower Amu

Darya region 41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

BERDAX NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.07.2024.A.20.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BERDAX NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

DJOLDASOV AKBAR BATIROVICH

QUYI AMUDARYO MINTAQASI KARVON YO'LLARIDAGI
INSHOOTLAR TIPOLOGIYASI

18.00.01 – Arxitektura nazariyasi va tarixi.
Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va tiklash

Arxitektura bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/A191 -raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<http://www.karsu.uz>) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shnekeev Jumabay Kalimbetovich
arxitektura fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Durdieva Gavhar Salayevna
arxitektura fanlari doktori (DSc), professor

Masharipov Oybek Abduraximovich
arxitektura fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.07.2024.A.20.11 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “27” sentabr, soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 230100, Nukus shahri, Sh. Abdirov ko‘chasi, 1-uy Axborot resurs markazi majlislar zali. tel.: +998612236078 e-mail: karsu_info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (362- raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 230101, Nukus shahri, Sh.Abdirov ko‘chasi, 1-uy. tel.: +998612236078)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «10» sentabr kuni tarqatildi.

(2025 yil «10» sentabrdagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

A.S. Uralov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, arxitektura fanlari doktori, professor.

B.Yu. Kidirbayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, arxitektura fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

A.T. Ilyasov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori (DSc), professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda turli mintaqalarning ichki va tashqi iqtisodiy-madaniy aloqalari, karvon yo'llarida xizmat ko'rsatish tizimi va u bilan bog'liq infratuzilmalarning rivojlanish tarixi, tarixiy-madaniy meros, me'moriy obyektlarni muhofaza qilish asosida zamonaviy turizmni rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Buyuk Ipak yo'lining chorrahasida joylashgan Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining taraqqiyotida iqtisodiy-madaniy aloqalar muhim xalqaro ahamiyat kasb etadi. Bu borada tarixiy karvon yo'llarining bugungi kundagi holati, ularda joylashgan yodgorliklar arxitekturasi, ulardan zamonaviy maqsadlarda foydalanish yo'llari dolzarb ahamiyatga egadir.

Dunyoda qadimdan shakllangan Buyuk Ipak yo'li taraqqiyoti, uning bo'ylarida shakllangan me'moriy yodgorliklar me'morligi, tipologiyasi, funksiyasini aniqlash, ularni turistik manzillarga kiritish, ilmiy asosli grafik rekonstruksiya qilish yuzasidan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ularda asosan Buyuk Ipak yo'lining bugungi kundagi holati, yo'l infratuzilmasini jonlantirish masalalari, Ipak yo'li atrofida hozirda ham saqlanib qolgan arxitektura yodgorliklarini tipologik jihatdan o'rganish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda Orolbo'yi mintaqasining o'ziga xos boy tarixi, urf-odatları, folklor va milliy-ba'diiy xususiyatlari, arxitekturaviy obyektlarini asrash yuzasidan ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. "...Turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish biz uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi. Hukumat oldidagi eng muhim vazifalardan biri – joriy yilda yurtimizga keladigan sayyohlar sonini 7,5 millionga etkazishdan iborat"¹. Bu borada mamlakatimizdagi tarixiy shaharlar va me'moriy obyektlarni ta'mirlash va qayta qurish takliflarini ishlab chiqish, turizm salohiyatini oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek samarador turistik marshrut yo'nalishlarini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 maydagi PF-5030-son "O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018 yil 16 yanvardagi PF-5181-son "Moddiy, madaniy va arxeologik meros obyektlaridan foydalanishni va muhofazasini takomillashtirish to'g'risida", 2021 yil 9 fevraldagi PF-6165-son «O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari, 2014 yil 21 iyuldagi PQ-200-son "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", 2017 yil 18 yanvardagi PQ-2731-son "2017-2021 yillarda Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida"gi qarorlari hamda boshqa me'yoriy-

¹ Uzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi// <https://president.uz/oz/lists/view/4057>

huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining

I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion g'oyalar tizimi shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Orolbo'yi Quyi Amudaryo mintaqasida me'moriy-madaniy meroslarni va ularning badiiy qiymatlarini aniqlashga qaratilgan dastlabki ilmiy tadqiqot ishlari Yevropalik va Osiyolik olimlar, jumladan sayyohlardan H.Vamberi, F.I.Baziner², Ibn Fadlan³, Ibn-Battuta⁴ tomonidan olib borilgan. Keyinchalik A.Yu.Yakubovskiy⁵, S.P.Tolstov⁶, T.A.Jdanko⁷, V.Bartold⁸, G.A.Pugachenkova⁹lar e'tiborini jalb qilib kelgan.

Quyi Amudaryo mintaqasidagi karvon yo'llari va ularga bog'liq inshootlarning o'rganilishi arxeologiya, tarix, arxitektura va etnografiya sohalarida turli tadqiqotchilar tomonidan alohida nazarda tutilgan bo'lsa-da, bu masalaning kompleks tarzda tahlili hali to'liq amalga oshirilmagan. Mavzuga oid ilmiy manbalarni arxeologik yodgorliklar (rabotlar, saroylar, majmualar) haqidagi ilk ma'lumotlar XX asr boshlarida O.A. Shishkin, S.P. Tolstov kabi sovet arxeologlari tomonidan "Xorazm arxeologiya-etnografik ekspeditsiyasi" doirasida olib borilgan.

Tarixiy manbalar va geografik ma'lumotlar bo'yicha karvon yo'llarining tarixi, ularning yo'nalishlari va iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati Ibn Battuta, Makdisiy, al-Istaxriy, Q.Masharipov kabi islom geograflari va sayyohlarining asarlarida Quyi Amudaryo mintaqasi Ipak yo'li tarkibida muhim o'rin tutgan, bu yerdagi karvonsaroylar savdo-sotiq, himoya va madaniy aloqalar markazi bo'lib xizmat qilgan.

Karvon yo'llariga bog'liq inshootlar - jumladan, ro'bot, saroy, majmua, suv inshootlari kabi arxitektura yodgorliklarining tipologik o'ziga xosligi H. Hasanov, Yu. Bobobekov, A. Qayumov tomonidan mahalliy hususiyatlar va umumislomiy me'morchilik an'analari asosida qisman tahlil qilingan. Ular inshootlarning qurilish texnikasi, himoyaviy va xizmat vazifalari, shakliy yechimlarini o'rganib chiqishgan.

Shuni ta'kidlash joizki, hududdagi karvon yo'llari va inshootlarining to'liq tipologik tasnifi, ularning xronologiyasi va madaniy-funksional ahamiyati borasida

² F.I. Baziner «Wissenschaftliche Reise durch die Kirgisensteppes nach Chiwa» (v «Beitrage zur Kenntniss des Russ. Reichs», izd. pri Akademii Nauk Berom i Gelmersenom, t. XV, SPb., 1848).

³ Ibn Fadlan Puteshestvie Ibn-Fadlana na Volgu, perevod i kommentariy pod red. akad. I. I. Krachkovskogo. – M.-L., 1939. – S. 166, 180.

⁴ Ibn Battuta Ibn Battuta Travels in Asia and Africa, 1325-1354

⁵ Якубовский А.Ю. Городище Миздахкон. Записки коллегии востоковедов при азиатском музее Академии Наук. СССР. – Ленинград. 1930.

⁶ Толстов С.П., Неразик Е.Е., Полевые исследования Хорезмской экспедиции. – М., 1963.

⁷ Жданко Т.А. Очерки исторической этнографии каракалпаков. – М.: Изд-во АН СССР, 1950. – 172 с.

⁸ Бартолд В. К истории орошения Туркестана. Соч., т. I. – М., 1965.

⁹ Пугаченкова Г.А., Ремпел Л.И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана. – Ташкент, 1958.

hanuzgacha yakdil ilmiy xulosa mavjud emas. Shu sababli, mavzu bo'yicha kompleks tahlillar, umumlashtiruvchi tipologiyalar va hududiy hususiyatlarni hisobga olgan holda ilmiy asoslangan natijalarga ehtiyoj katta.

Hozirgi kungacha Mizdaxqon, Devkesgan, Chilpiq, Tuproqqal'a, Ichan Qal'ada ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan va risolalar chop qilingan. Ya.G'ulomov¹⁰, I.I.Notkin¹¹, V.A.Bulatova¹², Ye.Ye.Nerazik, V.Bartold, M.S.Bulatovlar¹³ obidalarining tiklash uslubi, me'moriy tuzilishi va amaliy san'atini, Amudaryo quyi qismi Xorazm vohasi me'moriy yodgorliklarni V.N.Yagodin¹⁴, M-Sh.Qidirniyazov¹⁵, M.Mambetullaev, G'.Xodjaniyazov, Alison Betts, Mikel Minardi, Xelms, Sneddok, Kolin, G.Durdieva, T.Sh.Mamatmusaev, Sh.Nurmuhamedova kabi olimlar izlanishlar olib borgan.

Me'moriy yodgorliklarni qurilish materiallarini va konstruktiv tuzilishini o'rganishga doir ilmiy tadqiqot ishlari S.A.Masharipova, Sh.S.Reyimbayev, J.K.Shnekeev, O.A.Masharipov, N.M.Kaliev va boshqa mualliflar tomonidan tarixiy shaharlar, qal'alar, ulardagi me'moriy yodgorliklarning paydo bo'lishi, obidalarining kompozitsiya va tipologiyasiga oid tadqiqotlar olib borilgan.

Ammo quyi Amudaryo deltalarida ichki savdo karvon yo'llari va karvon saroylar me'moriy yodgorliklarining tiplari bo'yicha ilk bor o'rganilmoqda. Ipak yo'li tarmoqlari unga doir obyektlarni ziyoratgohlar ya'ni ko'chmanchilar me'morchiligi va madaniyati bog'liqligi yoki me'morchilikdagi aksi kompleks tarzda yetarlicha o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №7/6.11 «Orolbo'yi mintaqasida arxitektura va shahar qurilishini barqaror rivojlantirish» mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Quyi Amudaryo mintaqasidagi tarixiy karvon yo'llari va ularga bog'liq inshootlarning tipologik xususiyatlarini ochib berish, karvon yo'lidagi savdo-sotiq va sivilizatsion aloqalarning tutgan o'rmini aniqlash, zamonaviy turizm salohiyatini oshirishyuzasidan loyihaviy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Quyi Amudaryo mintaqasidagi yodgorliklar vujudga kelishining gidrografik tarixini va iqlimning me'moriy yodgorlikga ta'sirini o'rganish;

Quyi Amudaryo arteriyasi qirg'og'ida va uning deltasida shakllangan tarixiy savdo karvon yo'llarining yo'nalishlarini ochib berish;

¹⁰ Фуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент, 1959. – Б. 131.

¹¹ Ноткин И.И. Хивинская школа зодчества конца XIX начала XX вв. – 1962. 338 с.

¹² Булатова В.А. Архитектурные памятники Хивы. – Ташкент: Узбекистан, 1965. – 78 с.

¹³ Булатов М.С. Геометрическая гармонизация в архитектуре Средней Азии IX-XV вв. – М., 1978.

¹⁴ Ягодин В.Н., Ходжаев Т.К. Некропол древнего Миздахкана. – Ташкент: ФАН, 1970.

¹⁵ Қыдырнийазов М-Ш. Материалная культура городов Хорезма в XIII-XIV веках. 1989

karvon yo'llari atrofida shakllangan inshoot ziyoratgohlarni o'rganish;
tutash inshootlar – sardoba, mayoq minoralar, rabot, saroylar xususiyatlarini tahlil qilish asosida ushbu masaladagi ilmiy bo'shliq va muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

majmua va boshqa infratuzilmalarning arxitekturaviy va konstruktiv jihatlarini o'rganish;

mintaqada me'morchilikning o'ziga hosligini ochib berish; mintaqada ko'chmanchilar madaniyatini arxitekturaviy yodgorliklardagi an'ana va odatlar bilan bog'liq omillarni o'rganish;

tranzit orqali o'tgan savdo karvon yo'llari shimoli-sharqiy, janubi-sharqiy, shimol-janub va janubi-g'arbiy kabi asosiy to'rta yo'nalishlarida barpo qilingan yodgorliklarning me'morligini aniqlash;

arxitekturaviy yodgorliklar negizida turistik manzillar yaratishga doir istiqbolli zamonaviy texnologiyalar (GIS, aerokosmik kuzatuvlar va boshqalar)dan foydalanib loyihaviy takliflarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Quyi Amudaryo mintaqasidagi karvon yo'llari va inshootlar majmuasining (sardoba, rabotlar, minora mayoqlari, karvonsaroylar, qal'alar, bozorlar va ziyoratgohlar) tarixiy-geografik shakllanishi, arxitekturaviy tipologiyasi olingan.

Tadqiqotning predmetini karvon yo'llari bo'yidagi arxitekturaviy karvonsaroy yodgorliklarining hajmiy-fazoviy, tarhiy-rejaviy va tipologik hususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda kompleks va tizimli o'rganish, kuzatuv, joyida bevosita o'rganish, o'lchov chizmalari va arxiv materiallari tahlili kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Quyi Amudaryo mintaqasida savdo karvon yo'llarining shimoliy-sharqiy, janubiy-sharqiy, shimoliy-janubiy hamda janubiy-g'arbiy yo'nalishlari sxemasi aniqlanib, ularning geografik yo'nalishlari va tarixiy ahamiyati ochib berilgan;

Quyi Amudaryo mintaqasida joylashgan Beleuli, Gunjali, Puljay, Meshekli qal'a karvonsaroylari; Ko'hna Urganch, Shabbaz, Qizilqal'a, Gaur qal'a mudofaa garnizonlari; Qizilqal'a, Ayazqal'a, Topraqqal'a, Bozorqal'a mayoq minoralari va boshqa obyektlarga oid grafik loyiha takliflari ishlab chiqilgan;

yo'l bo'yi ziyoratgohlardagi maqbara, sag'ana va qulfi toshlar tiplari aniqlanib, ular ikki xil: sarkafak va toshli stella tiplariga mansubligi asoslangan;

karvon yo'llaridagi arxitekturaviy inshootlarning tipologik xususiyatlarining o'ziga xosligi va ishlatilgan ashyolarining mustahkamligi aniqlanib, tranzit orqali o'tgan savdo karvon yo'llaridagi arxitekturaviy inshootlarning uzviy bog'liqligi xususida yangilangan xarita ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mintaqada saqlanib qolgan yo'l bo'yi shaharlari, mudofaa va jamoat yodgorliklari me'morlik an'analariidan turizm maqsadlarida foydalanish mumkinligi asoslangan;

karvon yo'llari bo'yicha turizmni rivojlantirish uchun taklif etilgan yangi haritalardan unumli foydalanish imkoniyatlari yaratilgan;

tranzit orqali o'tgan savdo karvon yo'llari suvda va quruqlikda shakllangan shimoli-sharqiy, janubi-sharqiy, shimol-janub va janubi-g'arbiy kabi asosiy to'rtta yo'nalishli sxemasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi arxitektura fanida birlamchi moddiy madaniyat manbalariga bag'ishlangan adabiyotlar, arxeologik va arxiv materiallariga murojaat qilinganligi, hulosa, taklif va tavsiyalarning tegishli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi, xalqaro va respublika konferensiyalarida, ilmiy seminarlarda aprobasiyadan o'tkazilganligi hamda olingan natijalarning ilmiy ahamiyatga egaligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekiston me'morchiligi tarixi va nazariyasi sohadagi bilimlarni kengaytirish va boyitish bilan birga oliy ta'lim muassasalarida arxitektura va shaharsozlik, ta'mirlash va qayta tiklash kabi fanlarni o'qitishni takomillashtirishda, Quyi Amudaryo me'morchiligida mudofaa maktabi, fuqarolik Orolbo'yi mintaqasidagi me'morchilik an'alarining o'ziga xos jihatlariga bag'ishlangan ilmiy monografiyalar va maqolalar, magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati arxitektura va qurilish tashkilotlarining faoliyatida, yo'l bo'yi yodgorliklarini konservatsiya qilish, saqlash va qayta tiklashda, Orolbo'yi mintaqasi va Ustyurt platosida turizmni rivojlantirishda, shuningdek ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislarining kasbiy saviyasini oshirishda xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tarixiy yodgorliklar asosida hududlarning turizm imkoniyatlarini oshirish yo'llari (Quyi Amudaryo mintaqasi karvon yo'llaridagi inshootlar tipologiyasi) mavzusi yuzasidan olib borilgan ilmiy natijalar asosida:

Quyi Amudaryo mintaqasida savdo karvon yo'llarining geografik yo'nalishlari va tarixiy ahamiyati hamda Quyi Amudaryo mintaqasida joylashgan Beleuli, Uchquduq, Gunjali, Puljay, Meshekli qal'a karvonsaroylari; Ko'hna Urganch, Shabbaz, Qizilqal'a, Gaur qal'a mudofaa garnizonlari; Qizilqal'a, Ayazqal'a, Topraqqal'a, Bozorqal'a mayoq minoralari va boshqa obyektlarga oid grafik loyiha takliflari O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2024 yil 29 noyabrdagi 04-07/4561-son ma'lumotnomasi). Natijalar Quyi Amudaryo mintaqasida savdo karvon yo'llarining aniq yo'nalishlarini aniqlash imkonini yaratgan;

yo'l bo'yi ziyoratgohlardagi maqbara, sag'ana va qulfi toshlar tiplari, karvon yo'llaridagi arxitekturaviy inshootlarning o'ziga xos tipologik xususiyatlari to'g'risidagi xulosalar, tranzit orqali o'tgan savdo karvon yo'llaridagi arxitekturaviy inshootlarning uzviy bog'liqligi xususida ishlab chiqilgan yangilangan xaritaga oid takliflar O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2024 yil 29 noyabrdagi 04-07/4561-son ma'lumotnomasi). Natijalar

karvon yo'llaridagi arxitekturaviy inshootlarning tipologik xususiyatlarini aniqlash imkoniyatini yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, respublika va xalqaro konferensiyalarda 4 ta, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarida 4 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 143 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan hamda olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va Dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Quy i Amudaryo mintaqasida arxitekturaviy madaniyatning shakllanishi**" deb nomlanib, uch bo'limdan iborat. Ushbu bobda Orolbo'yi quyi Amudaryo mintaqasi va daryoning chap va o'ng qirg'oq yodgorliklarning vujudga kelinishida gidrografiyasi o'rganilgan.

Bobning birinchi bo'limi "Quy i Amudaryo mintaqasida arxitekturaviy madaniyatning shakllanishi" deb nomlangan. O'rta Osiyoda hech bir mintaqa shu vaqtgacha Xorazmdek boy arxeologik material bergan emas. Bu albatta, vohani muntazam va keng ko'lamda o'rganish natijasidir; biroq bu o'rinda shuni ham esdan chiqarmaslik zarurki, jonsiz sahrolar o'tmishdagi odam turmushi haqidagi dalillarni yaxshiroq va ko'proq saqlab qoladi. Shuning uchun ham O'rta Osiyo arxeologiyasi ayniqsa, Xorazm arxeologiyasi o'zining yangi yutuqlarini sahro sharoitida yodgorliklarning saqlanib qolishi tufayli qo'lga kiritdi. Bunga ishonch hosil qilmoq uchun daryoning o'ng qirg'og'i tomonidagi voha, Qizilqum chegarasiga borib taqalgan Sulton Uvays tog'ining sharqiy tizmalari bilan Tuyamo'yni o'rtasida qadimgi sug'orilgan yerlarga nazar tashlash kifoya qiladi. Bu yerda shimoldan esadigan kuchli shamol keng tekislik bo'ylab mavj uradi, u bu yerga sahro ichkarisidan sochma qumlarni haydab keltiradi, ularni tekis taqirlar ustiga olib kelib tashlaydi va ko'chma barxan tizmalarini hosil qiladi. Idish-tovoq siniqlari bilan to'lib yotgan yalang taqirlarda, qumlar quchog'ida juda ko'p qadimgi inshootlar, hom g'isht va paxsa urib ko'tarilgan qadimgi shaharlar, qal'alar, qasrlarning xarobalari qad ko'tarib turadi, suv taqsimlovchi tarmoqlari ajoyib ravishda saqlanib qolgan qadimgi sug'orish kanallarining quruq o'zanlari cho'zilib yotadi va hokazo. Bular qanday barpo etilgan va nima sababdan tashlab ketilgan, qachon va qaysi sharoitda bu yerlar sahroga aylangan.

O'rta asrlar, antik va ibtidoiy davrlarning ko'pdan-ko'p arxeologik arxitekturaviy yodgorliklari ichida ibtidoiy davr yodgorliklari alohida muhim o'rinda turadi. Chunki bu yodgorliklar xalqlarning ijtimoiy rivojlanish tarixini o'rganishda boshlang'ich bosqichdir. Quyi Amudaryo mintaqasi Xorazmda bu bosqichning juda aniq moddiy yodgorliklari topildi.

Uzoq yillar davomida Xorazm sug'orish tarixini har tomonlama o'rgangan

S.P.Tolstovning qayd qilishicha, feodalizm davri mobaynida irrigatsiya shohobchalarining qisqarib borishiga qadimgi irrigatsiya madaniyatining negizi bo'lgan jamoa, qulchilik va markazlashtirilgan istibdodning yemirilishi sabab bo'lgan. Haqiqatdan ham Xorazmda uzoq o'tmishda bunyod etilgan ulkan suv inshootlari o'rta asrga kelib feodal tarqoqlik, toju-taxt uchun bo'lgan o'zaro kurashlar va vayronagarchiliklar natijasida barbod bo'lgan. Surxondaryo, Zarafshon va boshqa daryolar bo'yidagi havzalarda bunyod etilgan va gullab-yashnagan qadimiy vohalarning cho'l biyobonga aylanishiga ham mana shu ijtimoiy va siyosiy voqealar sabab bo'lgan. Jamiyat biror talofat yoki tanglikka uchrasa, uni tabiat omillariga - daryolarning toshib ketishiga, qumlarning ko'chib yurishiga, tuproqlarning sho'r bosishiga, suv toshqinlariga va daryo o'zanlarining o'zgarishiga yo'yilar edi. Bularning hammasi dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholining boshqa joylarga ko'chib ketishiga, madaniy yerlarning ko'plab dasht-biyobonlarga aylanishiga sabab bo'lardi. Sug'orish ishlari rivoj topgan davr davlatning siyosiy markazlashuvi hamda mustahkamlanishi davriga to'g'ri kelishi tasodifiy emas.

O'tmishdagi afsonaviy o'lkaga aylangan, Yevropa va Osiyo mamlakatlaridagi katta bozorlarni rang-barang mollar bilan ta'minlab turgan qudratli va boy Xorazm qanday mamlakat ekanligini bilishga, bu uzoq sirli o'lka bilan muntazam ravishda savdo-sotiq munosabatlarini o'rnatishga ko'plab yirik davlat arboblari intilib kelganlar. Ularning asosiy maqsadi o'sha davrlarda savdo uchun eng arzon va qulay suv yo'llarini topishga qaratilgan edi. O'rta Osiyo, jumladan, Xorazm bilan qadimdan beri yaqin iqtisodiy va siyosiy munosabatda bo'lib turgan yirik davlat Rossiya edi. Dastlab mazkur mamlakatlar orasidagi savdo-sotiqni mustahkamlash maqsadida ilmiy tekshirishlarga tayanib Volga daryosi va Kaspiy dengizi orqali Xorazmga suv yo'lini o'tkazish imkoniyatini topishga chor Rossiyasi tomonidan ko'p urinishlar bo'lgan. Qadimgi kanallar katta va uzun bo'lgan. Ularning rosh (ariq qazishdan chiqqan tuproq uyumi) oraligi 30-40 metrgacha yetgan bo'lib, odatda daryoning qadimgi o'zani bo'ylab bir necha o'nlab kilometrgacha cho'zilgan. Bu davrga oid eng yirik dabdabali suv inshooti Xorazmda Qal'aliqir va Ko'zaliqir xarobalari o'rtalarida joylashgan. Uning umumiy kengligi 70 metr, ikki rosh oralig'i 40 metrga yetgan. Dovdan va Qangadaryo o'zanlari bo'ylab qurilgan o'sha zamondagi kanallar ham yirik inshootlardan hisoblanadi.

Xorazmning ko'p aholi yashaydigan punktlari doira yoki to'rt burchak shaklidagi istehkom usulida qurilgan. Bunday shahar xarobalari tipiga bir qator yodgorliklarni kiritish mumkin: Bozorqal'a vohasidagi Qo'yqirilgan qal'a, Qo'ziqirilgan qal'a, Jonbosqal'a; Chirmonyopda Qavatqal'a yonida Oqtepa, Qo'narliqal'alar shular jumlasidandir. Xorazm atroflarida ham shu kabi jarayon

kuzatiladi. Agar Devkeskan qal'asiga asos solingan dastlabki vaqtdan (taxminan eramizning boshlaridan) hisoblasak, Dovdonda o'sha vaqtlarda ham suv oqqan. Devkeskanning Ustyurt qirlarida strategik jihatdan juda qulay o'rinda joylashgani ham antik davrda bu yerda qal'a mavjud bo'lganligidan darak beradi. Bu qal'a quduq suvi bilan ta'minlangan bo'lib, quduq hozirgi vaqtgacha qal'a ichida saqlanib qolgan. Dovdon Chirmonyop havzasida asta-sekin aholining ko'payishi va u yerga sun'iy kanal o'tkazilishi tufayli, bu kanal bilan bevosita bog'liq bo'lgan ilk antik, ya'ni Kanguy tipidagi mustahkamlangan qishloqlar va qal'alar vujudga keldi. Davlatning strategik tayanchi janubi-g'arbga Govurqal'a, Qal'aliqir-2 va boshqalarga qo'chishi Qal'aliqir-1 va Ko'zaliqir qal'alarining dastlabki o'z vazifalaridan butunlay mahrum bo'lishiga olib keldi. Ammo tekshirishlardan Chirmonyopda uzoq vaqtlargacha, taxminan eramizning II—III asrlarigacha hayot davom etganligini ko'ramiz.

Shunday qilib, Quyi Amudaryo mintaqasidagi sahro va ekstremal sharoitiga xos arxitekturaviy inshootlarni bunyod etishda suv yo'llari va suv inshootlari asos bo'lgan. Amudaryo va kanallar atrofida aholi soni ko'payib, 100dan ko'proq qal'alar va inshootlar shakllanib, ularni qurishda mahalliy xomashyolardan paxsa foydalanilgan. Inshoot devorlari eni bir metrgacha bo'lsa, qavatlar bostirmasi va oraliq bostirma diametri 20-40 sm bo'lgan tol daraxtlari foydalanilgan. Natijada qal'a inshootlari doira yoki to'rtburchak shaklida baland hududga qurilgan. Qal'a ichkarisida quduqlar va avtonom kanalizatsiya mavjud bo'lgan. Bino xonalarining arxitekturaviy yechimlari feodalizm davriga xos rejalashtirilgan. Inshootlarni qurishda mudofa va savdo-sotiq infratuzilmalari hisobga olinib, davlatning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan.

Dissertatsiyaning **“Mintaqada shakllangan karvon yo'llar va arxitekturaviy inshootlarning tipologiyasi”** deb nomlangan ikkinchi bobi uchta bo'limdan iborat bo'lib, so'nggi o'ttiz yil ichida Markaziy Ustyurt karvonsaroylari bo'yicha asosiy tadqiqotlar o'tkazildi, bu esa faktlarning to'planishiga qarab ularni ma'lum bir tarixiy davrga bog'lash imkonini berdi.

Bu yodgorliklar haqidagi dastlabki ma'lumotlar bundan ikki yuz yil muqaddam adabiyotda paydo bo'lgan. P.I. Richkov o'zining batafsil asarida Beleuli (Beleuli) dasarida masjid va quduqli hovlini eslatib o'tadi.

XIX asr boshlariga kelib, A.I. Levshinning ulardan ikkitasi - Beleuli va Churuk haqida qisqacha ta'riflari mavjud: "Beleuli ota - Ust-Yurt o'rtasida. Bu joyda, qirg'izlarning aytishicha, avliyolardan biri masjid va madrasa qurdirgan. Siyaning tuzilishi hozirgacha butunlay buzilib ketgani yo'q. Ular g'isht gumbazli tosh plitalardan yasalgan. Ularning yonida chuqurligi 30 sarjin bo'lgan quduq bor. (taxminan 64 m.- Yu. M.). Ushbu inshootlarni o'rab turgan devor qal'a turini tashkil etadi va gumbazlar bilan qoplangan to'rtta darvozaga ega edi. Bu daryocha anchagina baland joyni tashkil etadi.

Undan uncha uzoq bo'lmagan masofada Turuq yoki Churuk dasarida imoratlar xarobalari va qabrlar bor. Qurilmalarda shu qadar katta toshlar ko'zga tashlanadiki, ularning qanday qilib o'z joylariga ko'tarilganini tushuntirish qiyin. Shu yerning o'zida qirg'izlar shifobaxsh kuchiga hayron qoladigan buloq yoki buloq otilib chiqadi."

N.P. Ivanov 1839-1840-yillarda Ustyurtga uyushtirilgan ekspeditsiya ma'lumotlarini o'rganib, "Orol dengizining quyi (janubiy) tomoni va Kaspiy dengizi o'rtasidagi yo'lda avvalgi jilosidan saqlanib qolgan me'moriy yodgorliklar" haqida ma'lumot beradi.

P.I. Nebolsin XIX asrda Rossiya bilan savdo-sotiqning ahvolini tahlil qilar ekan, Ustyurt platosi orqali o'tgan karvon yo'llari va u yerdagi xarobalar tavsifiga to'xtaladi. Uning ta'kidlashicha, Beleuli quduqlarida "uy ko'rinishidagi bino oq va qizil rangdagi ulkan toshlardan qurilgan va har biri alohida gumbazga ega bo'lgan bir nechta kichik mayitlarga bo'lingan. Hozir ularning ko'pchiligi qulagan."

V.V. Grigorev Ustyurt orqali Xiva xonligiga boradigan savdo yo'llarini tasvirlab, alohida quduqlar orasidagi masofani keltiradi va Beleuli haqida shunday deydi: Quduqlar g'isht bilan terilgan; ulardan keyin bitta minorasi bo'lgan katta eski tosh palata, balandligi uyga teng, ikki tomirli, gumbazli va ichki qismida bir nechta xonalari bo'lgan qal'a xonasi mavjud."

1950-yilda XAEning Ural-Ustyurt otryadi Ustyurtni kesib o'tgan o'rta asrlar (XI-XIII asrlar) karvon yo'lining quduqlar va karvonsaroylar bilan yaxshi jihozlangan qismida joylashgan yodgorliklarni arxeologik jihatdan o'rgandi.

Ustyurtning markaziy qismida otryad tomonidan Churuk, Beleuli, Qosbuloq va Uchquduq karvonsaroylari tekshirildi. Me'morlar M.Orlov va A.Sipko Uchquduq va Qo'sbuloq karvonsaroylarining tarh chizmalarini chizganlar. S.P.Tolstovning fikricha, "rejalashtirishning bir xilligi, ushbu binolar tuzilmalarining joylashuvi va xususiyati, ularning jihozlangan yo'lining yagona majmuasi sifatida nisbatan bir vaqtning o'zida qurilganligidan dalolat beradi".

1964-yilda E.Bijanov karvonsaroylarni tekshirishni davom ettirdi. Ulardan ikkitasiga (Buloq va Qosbuloq) kichik shurflar qo'yilgan bo'lib, ulardan XIII-XIV asrlarga oid sopol buyumlar olingan. Karvonlar savdo yullarida qiynalmasligi va xavf-xatarsiz yetib borishi uchun karvonsaroylar qurish asosan o'rta asrda keng avj olgan. Quyi Amudarya mintaqasida karvonsaroylarning joylashgan oraliq masofasi 20-30 km oraliqda qurilgan. Karvonsaroyning vazifasi karvonlarga mexmonxona vazifasini bajargan. Karvon yo'llar g'arb bilan sharq davlatlarini bog'lovchi bo'lganligi sababli Katta karvonlarga sharoit yaratilgan. Eng katta karvonlarda 100 tagacha savdo -sotiqqa mo'ljallangan yuk olib yurish ot va tuyasi bo'lib, ularga sharoit yaratishda Karvonsaroylarning arxitekturaviy tarx yechimida uzunligi o'rtacha 32-35m yeni esa 25-35m bo'lgan. Qo'yi Amudarya mintaqasida Ustyurt platosida aholi punkti kamiroq bo'lganligi tufayli karvonsaroylarga ko'proq e'tibor berilib qo'yidagi Ajigeldi, Qosbuloq, Churuk, Beleuli, Uchquduq, Kat, Kerder, karvonsaroylari savdogarlar uchun xizmat qilgan. Arxitekturaviy xususiyatlari bo'yicha tarxi kvadrat shaklida poydevorlari oxak.aralashgan qum va namlikni devorga o'tkazmaslik uchun tagiga qamish qo'llanilib, devorlari esa, Ustyurt platosida mahalliy toshdan qurilgan. Karvonsaroyning devorlari baland bo'lganligi sababli mustaxkamlikni ta'minlash maqsadida tashqi devor burchaklari aylana shaklda minora bo'lib diametri o'rtacha 3- 4m bo'lgan. Bunday savdo yullari davlatlar ekonomikasiga samarali ta'sir kursatgan. Shaharlarga yaqin joylarda qurilgan karvonsaroylar xatarsiz bulganligi uchun ularda himoya vositalari bulmagan, chul-biyobonlardagi saroylar esa dushman xavfidan quriqlanish uchun

baland devorlar bilan uralgan. Bunday ba'zi karvonsaroylarda hatto minoralar ham bulgan. Karvonsaroylar asosan ikki hovlidan iborat bo'lgan. Birinchi hovlida-qorovulxona, molxona, otxona, sayis-xona, omborxona, Ikkinchi hovlida-esa faqat dam olish xonalari, yotoqxonalar, oshxona nazarda tutilgan. Karvonsaroy katta hovliga ega bulib, uning atrofi ikki qavatli xonalar va zallar bilan uralgan. Karvonsaroylarning qay darajada salobatli arxitektura tuzilishiga ega ekanligiga ishon-hosil qilish uchun Belavli karvonsaroyi haqida tuxtalamiz. Belavli karvonsaroyi Xorazm me'morchiligi va monumental dekorativlar-arxitekturaning ajoyib yodgorligi hisoblanadi. Obida kvadrat qilib tekislangan katta-katta toshlardan bunyod etilgan. Unda karvonsaroyga xos bulgan barcha arxitektura elementlari mujassam. Binoning kirish qismi arksimon bulib, yon devorlaridan baland peshtoq bilan ajratilgan, uning ikki chekkasi minora bilan chegaralangan. Belavli-karvonsaroyining peshtoqi tepasidagi sher tasviri ham binoga tantanavor ruh baxsh etadi. Geometrik naqshli koshinlar Beleuli karvonsaroyining 4-xonadonidagi vayronalar qatlamidan topilgan. Ular to'g'ri burchakli shaklda (24x26,1x7,2 va 20,5x17,5x5,8). Ushbu plitkalar gumbazlarni chiqarish paytida ishlatilganligi sababli, tasvirlar gumbazni chiqarishdan oldin chizilgan deb ishonch bilan aytilish mumkin. Tomonlardan birida bir-biriga ichki chizilgan to'g'ri to'rtburchaklarga shaklan yaqin bo'lgan uchta shakl kesilgan. Ularning burchaklari va o'rtalari o'zaro kichik bo'laklar bilan birlashtirilgan. G'ishtlardagi shunga o'xshash tasvirlar adabiyotda "vavilonlar" deb nomlangan. Ular Yangi Saroyda, Sarkelda, Ko'hna Urganch va Selitren shaharchasida. V.L. Yegorov bu tasvirlar kvadrat uylarning reja chizmalarini hayratlanarli darajada eslatishini taxmin qilgan. Quyi Amudaryoda arxeologik tadqiqotlar keng ko'lamda olib borilganiga qaramay, Xorazmning o'rta asrlar davri tarixining ko'plab masalalari hali ham kam o'rganilgan. Ular qatoriga Xorazmning shimoliy qo'shnilari, xususan, turk-g'uzlar bilan o'zaro munosabatlarini kiritish mumkin. Ushbu masala bo'yicha yangi ma'lumotlar Sul-ton-Uvays tog' signalli minoralarini o'rganishda qo'lga kiritildi. Xorazmning shimoli-g'arbiy chegaralaridagi Ustyurtda joylashgan XXI asr boshlariga oid istehkomlar bir necha bor arxeologik tekshiruvlardan o'tkazildi. SSSR Fanlar akademiyasining Xorazm ekspeditsiyasi tomonidan 1946-yilda ko'plab signal minoralari ochilgan¹⁶. 1960-yilda ularni o'rganish V.N. Yagodin tomonidan davom ettirildi¹⁷ va E.Bijanov tomonidan 1963-yilda 1965-yilgacha davom ettirildi¹⁸

Inshoot antik g'ishtdan qurilgan bo'lsa-da, biz uni qal'a qurilgan vaqtga, ya'ni miloddan avvalgi IV asrga oid deb ayta olmaymiz. Bu yerda, ehtimol, g'ishtdan ikkilamchi foydalanish ko'zga tashlanadi. O'rta asr keramikasining ko'plab parchalari bu signal minorasi bo'lganligini ko'rsatadi. Ayoq qal'aning 1-sonli yodgorligida janubi-sharqiy burchak signal minorasiga aylantirildi. Shu maqsadda devorlararo o'qchi yo'lak antik o'lchamdagi g'ishtdan yasalgan ikkita

¹⁶ С. П. Толстов. По следам древнехорезмийской цивилизации. М.-Л., 1948, стр. 218-219, рис. 85.

¹⁷ В. Н. Ягодин. Маршрутные археологические исследования в левобережной части Приаральской дельты АмуДарьи. МХЭ, вып. 7. М., 1963, стр. 74, рас. 1.

¹⁸ Е. Бижанов. Средневековая крепость Давлет-гирей на Устюрте. «Вестник Каракалпакского филиала АН УзССР», 1965, № 4, стр. 65, рис. 3.

parallel devor bilan to'sib qo'yiladi. Qayta qurish natijasida 2,6x14 m o'lchamli kamera paydo bo'ldi.

Eshik, aftidan, shimol tomondagi qo'shimcha zinadan edi. Xonada kul, ko'mir, tosh massasini o'z ichiga olgan madaniy qatlam saqlanib qolgan. Devorlar ichkaridan qizarib ketgan. Aftidan, signal chirog' i yonib turgan xonaga vaqti-vaqti bilan xizmat ko'rsatganlar chiqib, ovqat pishirish uchun tugayotgan cho'g'dan foydalanishgan.

Xulosa qilib aytganda, mintaqada shakllangan karvon yo'llar muammosi aholi punktlari yo'q va kam bo'lgan Ustyurt tekisligida mavjud bo'lgan. Davlatlararo savdo-sotiqni, madaniyatni, qurilish jarayonlarini integratsiyalashda va davlatning rivojlanishida karvon yo'llar katta ro'l bajargan. Karvon yo'llarning rivojlanishiga karvonlarning yo'ldan adashmasligi uchun karvon yo'llar atrofida signal mayoqlar, karvondagi tuya – otlar va savdogarlarga dam olishga mehmonxona sifatida har 20-30 km masofada karvonsaroylarning mavjudligi, yanada savdogarlarning o'zlari foydalanishi va sotish uchun olib ketishga mahalliy homashyolar, hunarmand buyumlari, oziq-ovqatlar, shirin meva-sabzaboqlar, go'sht, mol terisi va hokazolar asos bo'lgan. Karvonsaroylarning arxitekturaviy yechimlari o'rganilganda karvon saroy shakli o'rtacha 33x33 m yoki umumiy maydoni 1000 m² bo'lishi va ikkita tinch va shovqinli zonaga ega hovlidan tashkil topganligini hisobga olsak, Quyi Amudaryo mintaqasida ortacha karvonda kamida 100 ta ot-tuyaga ega karvon bo'lganligini isbotlaydi. Karvonsaroylar tipologiyasi umumiy shakli to'g'ri burchakli, ot – tuyaga hamda savdogarlarga alohida hovli, tashqi devor balandligi 5 metrdan baland bo'lganligi sababli tashqi devor burchaklari aylana shaklda bo'lgan. Savdogarlar yashaydigan hovlining ichkarisida ikki qavat bo'lishi karvonsaroyni yanada mustahkam bo'lishini ta'minlagan.

“Qadimiy va o'rta asr Xorazm karvon yo'llari arxitekturasi negizida turizm istiqbollari” deb nomlangan uchinchi bobda ta'kidlanadiki, o'z vaqtida Sharq va G'arbni bog'lab turgan Buyuk Ipak yo'li orqali Turon zamini xalqlari jahon iqtisodiy va siyosiy, madaniy hayoti bilan bevosita aloqalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lgandir. Uzunligi 12 ming kilometrdan ziyod bo'lgan qadimiy yo'lning tarixi yurtimiz o'tmishi bilan bog'liq bo'lganligi uni yanada chuqurroq o'rganish muhim ekanligini taqozo etadi. Sababi, Buyuk ipak yo'lining kattagina qismi Markaziy Osiyo, xususan yurtimiz, hozirda O'zbekiston Respublikasi hududidan o'tgan bo'lib, xalqimizning iqtisodiy hayoti, ularning savdo-sotiq va madaniy aloqalarining kengayish jarayoniga juda katta ta'sir ko'rsatgan. Buyuk Ipak yo'lida joylashgan Farg'ona, Toshkent, Samarkand, Buxoro, Poykent, Hazorasp, Xiva, Mizdakxon, Gurganch kabi shaharlar yirik savdo markazlari sifatida dunyoga mashhur.

Natijada, juda qadimdan shakllangan va yuksak qadriyatga aylanib ketgan savdo- sotiq munosabatlari yoki urf-odatlarida alohida ahamiyat kasb etgan Buyuk Ipak yo'li tarixini o'rganishimiz, bugungi kunda qayta tiklash uchun qilinayotgan sa'y- harakatlar “Bir makon bir yo'l” kabi yirik loyihalarning amalga oshirilayotganligi va shu kabi yirik xalqaro miqyosdagi loyihalarni qo'llab-quvvatlashimiz bizning ham kelajagimiz taraqqiyoti uchun o'ta muhimdir.


